



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2022 - yil 5 - may

207-8-109-Q/22

Angor tuman hokimligi

Viloyat hokimining 2022 yil 2 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida” 2022-yil 29-apreldagi PF-127-son Farmoni ijrosi haqida”gi 282-8-0-Q/22-sonli qarori to‘g‘risida

Mamlakatimizda 9-may umumxalq bayrami – Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, shuningdek, Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan ajdodlarimiz xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirib, fashizmga qarshi janglarda, mehnat frontida jonbozlik ko‘rsatgan faxriylarimizga alohida e‘tibor va ehtirom ko‘rsatish, yoshlarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo‘shayotgan faxriylarni e‘zozlash hamda urush qatnashchilari va nogironlarini moddiy rag‘batlantirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2022 yil 2 maydagi 282-8-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan:

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga 15000000 (o‘n besh million) so‘m miqdorida bir martalik pul mukofoti belgilanganligi;

Farmonni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan sarf-xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV